

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ONA TILI DARSLARINI RAQAMLI RESURLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

Mukimova Ziyodaxon Moxir qizi,
Namangan davlat pedagogika instituti
1-kurs tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21212247>

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini raqamli ta’lim resurslari asosida tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tinglash, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishda mobil ilovalar, elektron platformalar, multimedia vositalari va sun‘iy intellekt asosidagi dasturlardan foydalanish metodlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim resurslari, ona tili, o‘qish savodxonligi, boshlang‘ich ta’lim, nutqiy kompetensiya, sun‘iy intellekt, interaktiv ta’lim.

Аннотация: В данной статье освещаются теоретические и практические аспекты организации уроков родного языка и грамотности чтения в начальном образовании на основе цифровых образовательных ресурсов. Рассматриваются методы использования мобильных приложений, электронных платформ, мультимедийных средств и программ на основе искусственного интеллекта для развития навыков аудирования, говорения, чтения и письма.

Ключевые слова: цифровые образовательные ресурсы, родной язык, грамотность чтения, начальное образование, речевая компетенция, искусственный интеллект, интерактивное обучение.

Abstract: This article highlights the theoretical and practical aspects of organizing native language and reading literacy lessons in primary education on the basis of digital educational resources. Methods of using mobile applications, e-learning platforms, multimedia tools and artificial intelligence-based programs for developing listening, speaking, reading and writing skills are discussed.

Keywords: digital educational resources, native language, reading literacy, primary education, speech competence, artificial intelligence, interactive learning.

Bugungi kunda mobil ilovalar, elektron platformalar, multimedia vositalari, interaktiv taqdimotlar va sun‘iy intellekt asosidagi dasturlar ona tili o‘qitish amaliyotiga tobora chuqur kirib bormoqda. Bu vositalar o‘quvchining nutqiy faoliyatini jonlantirish, mavzuni mustaqil o‘rganish imkoniyatini yaratish va o‘qituvchiga individual yondashuvni tashkil etishda qo‘l keladi.

Raqamli ta’lim resurslari deganda o‘quv jarayonida foydalaniladigan elektron darsliklar, interaktiv taqdimotlar, audio-video materiallar, mobil ilovalar, ta’lim platformalari va sun‘iy intellekt asosidagi dasturiy vositalar tushuniladi. Bularning barchasi ona tili darslarida o‘quvchining tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish ko‘nikmalarini har tomonlama rivojlantirish imkonini beradi.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida raqamli savodxonlikning ta’lim jarayoniga ta’siri masalasi keng o‘rganilgan. Jumladan, Bawden raqamli savodxonlikni nafaqat texnik ko‘nikma, balki axborotni izlash, baholash va undan oqilona foydalanish qobiliyati sifatida



talqin qiladi[1], bu esa ona tili darslarida matn bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish vazifasiga uyg‘un keladi. Falloon esa o‘quvchilarning raqamli vositalar yordamida o‘zlashtirgan bilimlarini amaliyotga tatbiq etish jarayonini tahlil qilib, interaktiv mashqlar va multimedia materiallarning o‘quvchi e‘tiborini jamlash va matnni chuqur anglashda samarali ekanligini ko‘rsatgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi yosh xususiyatlariga ko‘ra yangilikka tez moyil bo‘ladi va ko‘rish, eshitish hamda amaliy faoliyat orqali bilim olishni afzal ko‘radi. Shu bois interaktiv darsliklar, audio matnlar, animatsion videolar va ovozli mashqlar an‘anaviy og‘zaki bayon usuliga nisbatan o‘quvchi diqqatini uzoqroq ushlab turadi va mavzuni tushunishni osonlashtiradi. Bunday vositalar yordamida o‘qituvchi nazariy materialni amaliy mashqlar bilan uyg‘unlashtirib, har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasiga moslashtirilgan ta’lim strategiyasini tashkil etish imkoniga ega bo‘ladi[3].

Tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishda audio kitoblar, sifatli talaffuzga ega ovozli matnlar va interaktiv tinglash mashqlari samarali natija beradi. O‘quvchi matnni tinglagandan so‘ng savollarga javob berish, asosiy fikrni ajratish yoki voqealar ketma-ketligini tartiblash kabi topshiriqlarni bajaradi, bu esa diqqatni jamlash va eshitib tushunish qobiliyatini mustahkamlaydi[4].

Gapirish ko‘nikmasini takomillashtirishda esa sun‘iy intellekt asosidagi virtual suhbatdoshlar (chatbotlar) muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bunday dasturlar bilan muloqot jarayonida o‘quvchi savol-javob tartibida faol ishtirok etadi, fikrini erkin ifodalashga o‘rganadi va nutqiy faolligi oshadi. Bu usul, ayniqsa, uyatchang yoki tortinchoq o‘quvchilar uchun qulay muhit yaratadi, chunki ular xato qilishdan tortinmasdan, o‘z bilganicha fikr bildirish imkoniga ega bo‘ladi.

O‘qish ko‘nikmasini rivojlantirishda elektron kitoblar, interaktiv matnlar va multimedia ilovalari keng qo‘llaniladi. Bunday resurslar matn ichida tasvir, ovoz va animatsiya elementlarini birlashtirib, o‘quvchining matn mazmunini chuqurroq anglashiga yordam beradi. Matnni o‘qib bo‘lgach, dastur o‘quvchiga tushunganlik darajasini tekshiruvchi qisqa savollar taqdim etishi mumkin, bu esa o‘qituvchiga har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasini tezkor aniqlash imkonini beradi.

Yozma nutqni rivojlantirishda ham raqamli vositalarning ahamiyati katta. Maxsus dasturlar yordamida o‘quvchi yozgan matn avtomatik tekshiriladi, imlo va uslubiy xatolar aniqlanadi, bu esa o‘quvchining yozma nutqini mustaqil ravishda takomillashtirishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari, sun‘iy intellekt o‘quvchiga matn tuzish bo‘yicha tavsiyalar berishi, gaplarni mantiqan to‘g‘ri qurishga yo‘naltirishi mumkin. Shuningdek, raqamli o‘yinlar (gamifikatsiya) va interaktiv platformalar orqali grammatika, imlo va lug‘at boyligini mustahkamlash mashqlarini o‘yin shaklida tashkil etish o‘quvchining darsga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Bunday yondashuvda o‘quvchi xato qilishdan qo‘rqmasdan, qayta-qayta mashq qilish orqali bilimni mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladi, bu esa an‘anaviy yozma mashqlarga nisbatan yuqori motivatsiya yaratadi.

Raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning samaradorligi, eng avvalo, o‘qituvchining metodik tayyorgarligi va pedagogik mahoratiga bog‘liq. Texnologiya o‘z-o‘zidan natija bermaydi, balki uni darsning maqsadiga, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga va mavzu mazmuniga mos ravishda tanlash va qo‘llash zarur. Shu sababli o‘qituvchi endi bilimning yagona manbai emas, balki o‘quvchining mustaqil izlanishini yo‘naltiruvchi va unga yordam beruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi.



Amaliyotda raqamli resurslarni joriy etishda quyidagi tartibga rioya qilish maqsadga muvofiqdir: dastlab o‘quv dasturi talablariga muvofiq qaysi ko‘nikmani rivojlantirish zarurligi belgilanadi, so‘ngra shu maqsadga mos raqamli vosita tanlanadi va dars jarayoniga bosqichma-bosqich, mavjud an‘naviy metodlar bilan uyg‘unlikda kiritiladi. Mashg‘ulot davomida o‘quvchilarning faolligi va o‘zlashtirish natijalari kuzatiladi, zarur bo‘lganda resurs yoki uslub o‘zgartiriladi. Bunda raqamli vositalarning ona tili darsidagi nutqiy faoliyatni almashtirmasligi, faqat uni boyitishi va kuchaytirishi alohida e‘tiborga olinishi lozim, chunki ona tili ta’limining bosh maqsadi o‘quvchida erkin va mazmunli og‘zaki hamda yozma nutqni shakllantirishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini raqamli ta’lim resurslari asosida tashkil etish o‘quvchining tinglash, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Audio-video materiallar, interaktiv platformalar, mobil ilovalar va sun‘iy intellekt asosidagi vositalar o‘quv jarayonini jonlantirib, o‘quvchining mustaqil fikrlash va ijodiy izlanish qobiliyatini oshiradi. Shu bilan birga, bu vositalarning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining metodik tayyorgarligi va ulardan o‘rinli foydalanish mahoratiga bog‘liq bo‘lib qoladi. Shu boisdan kelajakda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi bo‘yicha izchil tayyorlash, shuningdek, milliy ta’lim tizimi sharoitlariga mos raqamli resurslar bazasini kengaytirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bawden, D. (2008). Origins and concepts of digital literacy. *Digital Literacies*, 30(1), 17–32.
2. Falloon, G. (2013). Young students using iPads: App design and content influences on their learning pathways. *Computers & Education*, 68, 505–521.
3. Mukimova Z.M. Raqamli texnologiyalar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish // “Tillarni o‘qitishda raqamli texnologiyalar: xorijiy tajriba, yangicha yondashuv va tadqiqotlar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Namangan, 2026. – B. 203–207.
4. Shermirzayeva M.B. Ona tili fanida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini sun‘iy intellekt vositalari yordamida rivojlantirish // “Tillarni o‘qitishda raqamli texnologiyalar: xorijiy tajriba, yangicha yondashuv va tadqiqotlar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Namangan, 2026. – B. 207–210.